

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

Muhammad Karimxojaning "Turkcha qoida" asarida fe'l formalarining izohlanishi.....6

Kuniyuki Noto

Boshlang'ich darajadagi grammatik qoliplarda yaponcha "iyi" va o'zbekcha "yaxshi" ning qo'llanilishi.....18

Ma'rufjon Dustmurodov

Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi: $t(a)b\gamma(a)\check{c} q(a)n\ yoyl(a)d\ddot{i}$ satri xususida30

Bobir Ashurov

Sud-ekspertiza lingvistikasida uslubiyat va uslublar.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.....69

Adabiyotshunoslik

Alimuhtar Muhtarov

Nizami Gencevî ve onun "Mahzanü'l-esrâr" Mesnevisinin İncelenmesi, Konusu ve İdeasi.....81

Shoiraxon Xo'jayeva

Turkiy adiblar ijodida "dunyo" konsepti va uning ma'rifiy talqini95

Tarix. Manbashunoslik

Ziyovutdin Ilhomov

O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari.....108

San'at

Элина Молдокулова

Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации121

CONTENT

Linguistics

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

The Explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's
"Turkish Rule"6

Kuniyuki Noto

The use of Japanese "iyi" and Uzbek "yaxshi" in Beginner-Level
Grammar Patterns18

Ma'rufjon Dustmurodov

On the line "yoyi: *t(a)by(a)č q(a)n yoyl(a)di*" in the inscription
of "Qari Čor Tigin"30

Bobir Ashurov

Methodologies and Methods in Forensic Linguistics.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System.....69

Literature

Almukhtar Mukhtarov

A Study of Nizami Ganjavi and his Methnewi 'Makhzan Al-asrar':
Analysis, Theme and Idea81

Shoirakhon Khujaeva

The Concept of "world" in the works of Turkic authors and its
Enlightenment Interpretation.....95

History. Source studies

Ziyovutdin Ilkhamov

The aspect of History in Uzbekistan: Jadids and their historical-
scientific perspectives in the early XXth century.....108

Art

Elina Moldokulova

Preserving Uzbek Cultural Identity Through Language and
Traditional Costume in the Globalization Era121

TARIX. MANBASHUNOSLIK
HISTORY. SOURCE STUDIES

O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari

Ziyovutdin Ilhomov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda tarix fani va tarixni o'rganishga bo'lgan munosabat, yaratilgan tarix asarlari va tarixiy mazmundagi maqolalar, tarixchilarning tarix borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida shakllangan Qo'qon, Toshkent, Buxoro va Xorazm tarixnavislik maktablari va ularning tarixni o'rganishdagi o'rni, XX asr boshlarida Turkistonda tarixnavislik an'alarining davom ettirilishi, mualliflar va ularning yaratgan asarlari va ilmiy ishlari, ulardagi tarix va tarix fanining ahamiyati hamda uni o'rganish borasidagi fikrlari, g'oyalari, qarashlari haqida tahliliy fikr bildiriladi. Bunda XX asr boshlarida jahonda tarix fani sohasida yuzaga kelgan yangilanishlar va tamoyillarning qaror topib borishi va ularning tarixni o'rganishga ta'siri, shu davrda yashab ijod qilgan yirik jadid namoyondalari va tarixchilar hamda adiblar, ma'rifatparvar ziyolilar, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ishoqxon Junaydullox'o'ja o'g'li Ibrat, Mullo Olim Mahdumhoja, Hoji Muin, Vadud Mahmud, Muso Saidjonov kabi olimlarning asarlari va qarashlari qisqacha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *tamoyillar, yondashuvlar, jadidlar, tarixiy asarlar, ilmiy maqolalar.*

Kirish

Tarix va u bilan bog'liq tushunchalar Sharq tarixnavisligi, xususan, mamlakatimiz hududlarida yashab ijod qilgan bir qator tarixchilar, shoirlar va adiblarning ilmiy-tarixiy asarlarida o'z aksini topganki, bu borada bir necha asrlar davomida Yevropada davom

¹*Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich* – tarix fanlari nomzodi, professor, Nizomiy nomidagi O'zMPU.

E-mail: ilhomov@mail.ru

Iqtibos uchun: Ilhomov, Z. 2025. "O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 108 – 120.

etgan bahs va munozaralarning sharq tarixchilari tomonidan ham faol tarzda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Albatta, bu bahs va munozaralar, fan borasidagi turlicha yondashuvlar yillar mobaynida u yoki bu darajada takomillashib, mukammallashib bordi. XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududlarida Qo'qon, Toshkent, Buxoro, Xorazm tarixnavislik maktablari shakllandi, bular orasida, ayniqsa, Qo'qon tarixnavislik maktabini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Qo'qon tarixnavislik maktabida nafaqat xonlik tarixini aks ettiruvchi, balki jahon tarix fanida noyob manbalar sifatida e'tirof etilgan bir necha o'nlab asarlar yaratildi, asarlar mualliflarining tarixni o'rganish va unga bo'lgan yondashuvlari to'g'risidagi fikrlari yoritib berildi [Воҳидов 2010; Муниров 2002].

Turkiston xalqlarida shakllangan tarixnavislik an'analari keyingi davrda ham davom ettirildi. Ayniqsa, XX asr boshlariga kelib tarix fani sohasida turli ilmiy-nazariy qarashlar va tamoyillarning shakllanib, tarixni o'rganishga bevosita ta'sir etib borishi, tadqiqotlar masalalarida yangidan-yangi, yondashuvlarning qo'llay boshlanishi fanning ilmiy va nazariy jihatdan takomillashib borishiga ta'sir ko'rsata boshladi. Bu jarayonlarda Turkiston xalqlari tarixchilari ham chetda turmadilarki, ularning shu davrda tarix faniga oid ilgari surgan fikrlari va qarashlarining o'z asarlarida aks etishi buning yaqqol dalilidir. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Muhammad Yusuf Bayoniy, Ishoqxon Junaydullox'o'ja o'g'li Ibrat, Mullo Olim Mahdumhoja, Hoji Muin, Vadud Mahmud, Muso Saidjonov kabi jadid ma'rifatparvarlari, tarixnavislar va ularning asarlarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Shu o'rinda jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg'onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning tarixni o'rganish va uni yozishning zaruriyati haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish mumkin: "Tarix ko'p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba'zisi ushбудurki, bir millatning na tariqada, qaysi yo'l ila taraqqiy etganin o'qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo'lub ketganin o'qub mundan ham istifoda etmak mumkindur. ... Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g'ofil va bexabardurmiz. Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgon, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudga kelgan yo'q. To'g'risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o'g'lonlaridan

hanuz maydong'a chiqqon yo'qki, bu esa turk bolalarining noxalaf bo'lub, chin o'g'ul emasliklarig'a dalildur. Bu so'zlardan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor" [Бехбудий 1999, 178 – 179].

Asosiy qism

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida asosan O'rta Osiyo va qo'shni turkiy davlatlarda keng tarqalgan va ta'lim sohasining taraqqiy etishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan jadidchilik harakati va jadid namoyondalari ham tarix faniga alohida e'tibor qaratganlar va uni chuqur o'rganish shartligi haqidagi fikrlarini bildirganlar. Jumladan, tarix fanining jamiyat taraqqiyoti, millatning o'zligini anglashdagi nufuzli o'rniga alohida e'tibor qaratib, tarix fanini o'rganishga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar atroflicha e'tibor qaratganlar. Bu haqda, M. Behbudiy shunday deydi: - "Hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil bo'lish uchun o'z vatani va o'z tarixini o'rganish da'vati bilan chiqish lozim". Bundan anglash mumkinki, M.Behbudiy millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalar bilan teng aralasha oladi, degan fikrda bo'lib, tarixni o'rganish va tarixiy xotira, tarixiy ong masalalariga alohida e'tibor qaratadi [Бехбудий 1999, 18].

Abdurauf Fitrat esa o'z navbatida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tadi: "Qaysi millat yashashni (ravnaqu taraqqiyotni) istasa, tarixini bilishi lozim bo'ladi. Zero, tarix bir ko'zguga o'xshaydi, har bir qavm o'zining ahvoli va ijtimoiy hayot qoidalarini unda ko'rib, yaxshini yomondan farq qiladigan bo'ladi" [Фитрат 2010, 36 – 61].

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarini yozar ekan, undagi ayrim voqealar tafsilotlarini o'zidan avval Ogahiy tomonidan yozilgan asarlardan topmaganligi va endi bevosita o'zi tarixiy jarayonlar ishtirokchilari va shohidlarining so'zlaridan yozishga harakat qilganligini ta'kidlaydi: "... Yuqorida zikr etilgan davr tarixini (Muhammad Rahimxon II ning (1865-1910-yy.) 1872-yilgacha bo'lgan xonlik davrini – mualliflar) o'sha davrda ishga aralashib yurgan bir necha kekxa odamlarni topib, ulardan bo'lgan voqealarni so'rab, diqqat bilan haqiqatlab yozdim...". Muhammad Yusuf Bayoniy "Xorazm tarixi" asarini yozishda tarix va uni tavsiflashga alohida e'tibor qaratadi va tarixni haqqoniy, obyektiv ravishda yozish shartligini uqtiradi: "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan

voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi". XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Farg'onalik tarixchi Ishoqxon Junayduloxo'ja o'g'li Ibrat To'raqo'rg'oniy insonlarni o'z o'tmishi va ajdodlari, yashab turgan vatani va uning o'tmishini bilishi zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi va tarixni o'rganishga da'vat etadi: "...Inson ancha-muncha baqadri ilmi bashariyat tavorixdan bilmak labudda o'lmoqi ma'lumdir. Loaqal kishi o'z muvattin yerini bilmak zaruriyotdandur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindurki, ko'rmak va bilmak ilmdandur" [Alimova, Ilhomov 2019, 88].

Bu davrda yashab, ijod qilgan olimlar va tarixchilarning tarix va tarix fani, tarix ilmi haqida keltirib o'tgan fikrlaridan ham anglash mumkinki, Sharq, xususan, O'rta Osiyoda ham qadimdan tarix fani sohalariga e'tibor kuchli bo'lgan va ayni vaqtda tarixnavislar faqatgina tarixiy jarayonlarni tavsiflash yoki manbalarni tahlil etish kabilar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarix va tarix fani haqida, uni qanday yozish yoki tahlil qilish kerakligi kabi masalalar yuzasidan ham o'zlarining ilmiy-nazariy va falsafiy fikrlari va qarashlarinini ko'rsatib o'tganlar [Илҳомов 2010, 77 – 84; Илҳомов 2015, 60 – 62].

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan farg'onalik tarixchi Ishoqxon Junayduloxo'ja o'g'li Ibrat To'raqo'rg'oniy insonlarni o'z o'tmishi va ajdodlari, yashab turgan vatani va uning o'tmishini bilishi zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi va tarixni o'rganishga da'vat etadi: "Inson ancha-muncha baqadri ilmi bashariyat tavorixdan bilmak labudda o'lmoqi ma'lumdir. Loaqal kishi o'z muvattin yerini bilmak zaruriyotdandur. Bilmasa, tafosir va ahodislarda va tavorixlarda mubayyindurki, ko'rmak va bilmak ilmdandur" [Баёний 1991, 5 – 6].

Ibratning yozuvlar tarixiga oid "Jome' ul hutut" ("Xatlar majmuyi", 1912-y) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari ("Tarixi Farg'ona", 1916-y; "Tarixi madaniyat", 1925-y; "Mezon uz-zamon", 1926-y) esa Qo'qon xonligining vujudga kelishidan to XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Ibrat "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma'rifat va madaniyatni targ'ib etgan. Ibrat tarix fani sifatida, garchi, o'zining "Tarixi Farg'ona" asarida ko'pgina tarixiy jarayonlarni va ularning tavsifini, shaxslar faoliyati va ularning tarixiy jarayonlar-

dagi ishtiroki va boshqa shu kabi bir qator holatlarni bayon etib bergan bo'lsada, inson jamiyat taraqqiyoti va uning tarixidan xabardor bo'lishi, hech bo'lmaganda o'zi yashab turgan vatani, tug'ilib o'sgan zamini tarixini bilishi lozimligini, bu hatto tafsir va hadislarda ham shart etib qo'yilganligi va bu ham ilm ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Tarixchi Mullo Olim Mahdumhoja esa "Tarixi Turkiston" asarida tarixga shunday ta'rif beradi: "Ilmi tavorix [tarix ilmi]ning foyidamandlig'ig'a tamomi firqa muttafiq ur-roydurlar. Aksar tavoyifi umam, balki tamomi ahli olam bu ilmni amalga qo'yub, gumosh-tagonlarindin rivoyat va hikoyatlar qilib, oning o'zlarig'a dalil qiladurlar" [Мулло Олим Махдумхожа. 2010, 3].

Bu davr jadid namoyondalari orasida Hoji Muin va uning faoliyatini ham alohida ko'rsatib o'tish o'rinlidir. O'ziga xos "ustozshogird" an'analari asosida ijod qilgan hamda yirik jadid namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy izdoshlaridan biri sanalgan Hoji Muinning ham faoliyati serqirra bo'lib, uni eng avvalo o'qituvchi sifatidagi, qolaversa, shoir, hajvchi, tarjimon, jurnalist kabi sohalardagi faoliyatini e'tirof etgan holda tarix fani sohasiga ham alohida e'tibor qaratganligini ko'rish mumkin.

Xususan, XX asr boshlari Turkistondagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar, maorif va matbuot, ayniqsa, tarix fani hamda tarjimonlik ishlarining rivoj topib borayotganligi haqida so'z yuritib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Har millatning o'zig'a maxsus madaniyati, adabiyot va matbuoti, milliy tarix va tarojimi ahvol kitoblari, shoir va adiblari bo'ladi. Bir millatning taraqqiyoti madaniyasi qaysi darajada ekanligini bilmak uchun uning adabiyot va matbuotini bir daraja ko'zdan kechirmak lozimdur. Biz Turkiston turklari burung'i muhtasham va madaniyatimiz so'ng'ondan keyin so'ngg'i asrlarda har bir jihatdan juda ketda qoldiq. Madaniyat va maorifimiz xarob, davlat va hukumatimiz barbod bo'ldi. O'zimiz Yovrupo jahongirlarining asoratida qoldiq. Lekin so'ng bo'lsa ham, gunoh va xatolarimizdan xabardor bo'la boshladiq. Bir oz uyg'ondiq. Bizda "intiboh davr"¹ 1901nchi yildan boshlandi. Biz uyg'onish davridamiz. Bizda yangi adabiyot endigina o'sdi. Matbuot yaqindag'ina tug'uldi. Shoir va muharrirlar bu kunlardagina yetisha boshladilar. Tarix va tarojim yozish ishlari esa, hanuz gullanish arafasidadur" [Хожи Муин 2005, 9].

¹ *Intiboh* (arab tilida – ogohlik, uyg'onish) - qalbdagi g'afolatning barham topishi, ruhiy uyg'onish. Ўзбек тилининг изохли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. 2006.

Shuningdek, Hoji Muinning XX asr boshlarida ta'lim sohasida nashr qilingan adabiyotlar tarixiga bag'ishlangan "O'zbek alifbolari tarixi" [Ҳожи Муин 2005, 91-93], "Forscha alifbolar tarixi" [Ҳожи Муин 2005, 93-95] kabi maqolalarini ham ko'rsatib o'tish lozim, bu maqolalarida Hoji Muin "Turkistonda ilmiy-adabiy uyg'onishning boshlanishig'a yigirma besh yil to'lganligi" ni ko'rsatib o'tib, shu davrda, ya'ni 1901-1925-yillar oralig'ida nashr etilgan alifbolar va ularning ta'limdagi o'rni masalalariga to'xtalib o'tadi.

Bu davr ma'rifatparvar ziyolilaridan biri sifatida Vadud Mahmudni ko'rsatib o'tish mumkin. Vadud Mahmud o'z faoliyatida asosan adabiyot tarixi sohasida izlanishlar olib brib, turkiy xalqlarning diniy e'tiqodlari haqida, yozuvlari haqida o'z qarashlarini, xulosalarini ko'rsatib o'tadi, bunda turli davrlarda yaratilgan qator manbalarga asoslanadi: "Turklarning yozuv bilan tanishliqlari ko'b eskidir. Turklarning miloddan burun qurg'on buyuk imperato'rliklarida yuraturg'on buyruq, yorliqlar tabiiy o'laroq turkcha yozuv bilan bo'lar edi. Bu yozular to'g'risida holo ham ilm olamida sarix ma'lumot yo'qdir. Xitoy voqe'nomalarida tarixga ma'lum eski turk jamiyati bo'lg'on "xul"larning yozuvlari borlig'i zikr etilsa ham, uning qanday yozuv ekani noma'lumdur. ... Turklar o'z hayoti tarixiyalarida turli-turli yozuvlar ishlatib o'tganlar. Xitoy ta'siri ostida bo'lg'on vaqtlarida tarixiy toshlardan bilinadirki, Xitoy yozuvini ham ishlatganlar. Gul Takin toshining bir yog'i xitoycha va bir yog'i o'rxuncha yozilg'ondir. Bu o'rxun yozuvidan boshqa bir vaqtlar moniy alifbosi ishlatganlari ma'lum" [Вадуд Маҳмуд 2007, 12].

O'z tadqiqotlarida Vadud Mahmud tarixiy jarayonlarga ham to'xtalib o'tadi. Xususan, ilk o'rta asrlardagi siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining markazlari Iroq va Xuroson hududlari bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib bu taraqqiyotning Movarounnahrda ko'chganligiga ishora qilib: "O'rta Osiyoning yangi tarixida eng boy va shavkatli davlatlar shu davrning mahsulidirlar", - deya Amir Temur va temuriylar hamda keyingi davrlardagi xonliklar davlatlariga ishora qiladi [Вадуд Маҳмуд 2007, 15]. Bu davr tarixiy jarayonlaridagi madaniy taraqqiyot masalalarini esa alohida ta'kidlab o'tadi: "O'zbek adabiyotining ancha eski bir tarixi bordir. Bu tarixda Navoiy davri, Umarxon davri kabi gullagan tarixiy davrlar ham bordir. Bu davrlar va bularning orasida o'tkan zamonlar besh yuz yildan oshuqdir. Bu uzoq fursat va zamonning har vaqtida o'zbekchig'atoy shoirlari ko'rugandir" [Вадуд Маҳмуд 2007, 34]. Bu fikrlardan anglashiladiki, Vadud Mahmudning ilmiy ijodida

tarixiy jarayonlarning bir qancha tafsilotlariga alohida to'xtalib o'tilganligi uning ilmiy faoliyatida tadqiqot obyektining muhim qismini tarixga oid muammolar tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekistonning XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan tarixchilari qatorida Muso Saidjonov alohida o'rin egallaydi. Muso Saidjonov yirik jadid namoyondalaridan biri bo'lib, ma'rifatparvar, pedagog, davlat arbobi, adabiyotchi, tarixchi va geograf sifatida tanilgan.

O'zbekistonning zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida Muso Saidjonovning Buxorodagi ma'rifatparvarlik harakatida ishtirok etib xalqni xat-savodli qilish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash yo'lida olib borgan ishlari hamda uning o'rta asr Sharq qo'lyozmalarining chuqur bilimdoni, arxeolog olim, professor darajasiga yetishishi, ilmiy va siyosiy faoliyati haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan va batafsil yoritib berilgan [Myxamedova 2023].

Muso Saidjonov 1935-yil 10-18-sentyabr kunlari Leningrada o'tkazilgan Eron san'ati va arxeologiyasi mavzusidagi sharqshunoslar va tarixchilarning III xalqaro kongressda o'zining "Samarqand yodgorliklari haqidagi yangi dalillar" nomli ma'ruzasida Muhammad Badi Malixo Samarqandiyning 1693-yilda Go'ri Mir maqbarasining vaqf hujjatlari asosida yozilgan, ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan manbasida Go'ri Mir maqbarasi, Ko'kaldosh jome masjidi, Shohi-zinda maqbarasi, shuningdek, XIV asr boshlarida qurilgan Qusam ibn Abbos maqbarasi va undagi koshinpazlik ishlari haqida so'z yuritadi. Shuningdek, u o'z ma'ruzasida Samarqanddagi Ko'chkinchixon maqbarasi tarixi va uning nomlanishi bilan bog'liq bo'lgan, tarixiy dalillarga asoslangan ma'lumotlari bilan barchaning e'tiborini qozondi. Bunga qadar ushbu maqbara boshqacha talqin qilinib, "Childuxtaron maqbarasi" deb nomlanar edi. M.Saidjonov esa bu xatolikni aniq dalillar bilan ilmiy nuqtai nazardan isbotladi va buning uchun Ermitajda o'tkazilgan ushbu kongressda unga ramziy professor unvoni berildi [Myxamedova 2023, 21]. Muso Saidjonovning "Buxoro shahri va eski binolari" nomli maqolalari e'lon qilinganligi, Samarqand va Shahrisabzning me'moriy yodgorliklariga oid izlanishlar olib borganligi manbalarda qayd etilgan.

Bu davr tarixchilari orasida Abdurauf Fitrat va uning ilmiy-ijodiy faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Atoqli o'zbek olimlaridan biri Abdurauf Fitrat Yevropa tarixchilari tomonidan tarix fani va uning predmetining turli talqinlarini ilgari surish "avj" olgan XX asr boshlarida tarix va tarix

fani haqida o'zining bir qator ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarini ilgari surish bilan o'zbek tarix fani taraqqiyotining jahon tarixi fani taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqlikda, hattoki ayrim jihatlardan o'zining teran qarashlari bilan (jadidlar qarashlarida ayniqsa, tarixiy xotira masalasida) undan ma'lum darajada ilgarilab borayotganligini ham ko'rsata oldi [Илҳомов 2019, 49 – 52; Ilhomov 2021, 140 – 145; Ilhomov 2022, 73 – 78; Илхамов 2023, 659 – 663]. Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida mavjud ijtimoiy hayot jarayonlariga taalluqli bo'lgan bir qator dolzarb mavzularda qalam tebratish bilan birga fanning turli sohalarida ham samarali ijod qildi. Ayniqsa, Fitratning ijod namunalari sanalgan tarixga oid asarlari biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Fitratning bu asarlarida tarix va unga nisbatan bildirilgan fikrlar, ilmiy va nazariy mazmundagi qarashlari va xulosalari zamonaviy tarix fanining ilmiy-nazariy masalalariga ham mos kelishi bilan birga XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston, qolaversa, sharq musulmon tarixchilarining tarix faniga bo'lgan munosabatlari va ayni vaqtda fanning ilmiy va nazariy masalalari borasidagi qarashlarini ham aks ettirib turadi. Abdurauf Fitratning bunday mazmunga ega qarashlari va fikrlarini uning turli asarlarida kuzatish mumkin, biroq uning "Muxtasar islom tarixi" [Фитрат 2010, 100.]

("Islom [dini]ning qisqacha tarixi") hamda "Rahbari najot" [Фитрат 2010, 62 – 208] asarlarida tarix faniga oid ilmiy qarashlari aniq ifoda etilganligi bilan ajralib turadi. Mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, muallifning "Muxtasar islom tarixi" asarida tarixning tushuntirib berilishi va tarixiy jarayonlarning yoritilishiga bo'lgan yondashuvlar shu mazmundagi boshqa asarlardan ma'lum darajada farqlanib, aniqlik va mukammallik borasidagi ma'lum darajada muvaffaqiyatga erisha olgan. H.Boltaboyevning ta'kidlashicha, Fitratning asari voqealarning aniq, jonli ifodasi, millatparvarlik ruhi tasvir qatiga singdirilgani va xolis yozilgani bilan xususiyatlanadi [Фитрат 2004, 3].

Fitratning tarixga oid qimmatli ma'lumotlari va ayni vaqtda jahon tarixi hamda sharq musulmon tarixnavisligi borasida bildirilgan ilmiy qarashlari aks ettirilgan ikkinchi muhim asari "Rahbari najot" ("Najot yo'li") asaridir. Fitratning "Rahbari najot" asari 1914-yilning yozida yaratilgan bo'lib, 1915-yilda Petrogradda fors tilida bosilib chiqadi. Abdurauf Fitrat merosiga bag'ishlangan tanlangan asarlar tuzuvchilarining fikricha, ushbu ma'rifiy risolada muallif "najot yo'li, yetakchisi" sifatida "Qur'oni karim"dagi ilohiy hukmlar va Payg'ambarimizning xadisi shariflarida bayon qilingan

hikmatlarni biladi va o'zining asari orqali buni isbot qiladi" [Фитрат 2010, 286].

Fitrat "Muxtasar islom tarixi" asarida tarix faniga ta'rif berib, uni quyidagicha ifodalaydi: "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rgatuvchi fandır" [Фитрат 2010, 36].

Bu bilan Fitrat XVIII asrda yashagan shotlandiyalik tarixchi D.Yumning qarashlarini aks ettirgan bo'lsada, ayni vaqtda ko'rish mumkinki, o'zbek tarixnavisligi va O'zbekiston hududlarida tarix ilmi shu vaqtlarda Yevropada va jahonning boshqa mamlakatlarida mavjud bo'lgan qarashlardan to'la boxabar bo'lgan [Ilhomov 2022, 73 -78].

Tarix fani haqida Abdurauf Fitrat shunday yozadi: "Tarix juda qadimiy bir ilmdir. Yunonlilar eng birinchi bo'lib tarix yozgan qavmlardan hisoblanadi. Islom zuxur topib taraqqiy etgandan so'ng ulamolarimiz bu ilmda ham ancha sa'y-harakat ko'rsatib kitoblar yozganlar. Hatto tarix ilmini isloh qilib foyda baxsh etuvchi fanga aylantirganlar ham musulmon olimlari bo'ladilar" [Фитрат 2010, 100].

Biroq Fitrat yashab ijod qilgan XX asrning boshlarida Turkistonda ilm va fan taraqqiyoti jahon ilm-fan taraqqiyoti yutuqlaridan nisbatan ortda qolib borayotgan edi. Fitrat, ayniqsa, ilm sohasida yangi-yangi olimlar, yangi asarlar va kashfiyotlarning so'nggi vaqtlarda ko'zga ko'rinmayotganligi, bu sohalarda pasayish mavjudligini ko'ra olgan va bu haqda o'zining quyidagi fikrlarini ham bildirib o'tgan edi: "Borib-borib zamon o'zgardi, sa'yu harakatlar, ilmga bo'lgan intilishlar susayib, talqinchilikka aylandi, "ijod qilmoq" (degan tushuncha) zararli va aloqasiz manzumalar chordevorida qolib ketdi" [Фитрат 2004].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Abdurauf Fitratning tarixiy asarlari, uning tarix haqidagi bildirgan fikrlarini o'rganish jarayonida adibning sharq tarixnavisligi bilan bir qatorda Yevropa tarixchilarining ilmiy nazariy qarashlaridan ham mukammal darajada boxabar bo'lganligini anglash mumkin. Fitratning tarix fani va uning predmeti, tarix fanining tarkibiy qismlari va tarmoqlari borasida ham o'z qarashlariga ega bo'lganligini uning tarixiy asarlarida, ulardagi tarixiy jarayonlarning tavsifiy jihatlarida ham kuzatish mumkin. Bu borada uning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: "Tarix ikki kismdan iboratdir: umumiy tarix va xususiy tarix. Umumiy tarix shunday tarixki, hamma millat va jamiyatlarning ahvolini yozaturgan ilmdir. Xususiy tarix yolg'iz bir millat va bir

jamiyatning tarixini yozadi. Islom tarixi xam xususiy tarix bo'ladir" [Фитрат 2010, 36].

Fitrat bu boradagi fikrlarini yanada mukammallashtirib, "Najot yo'li" asarida tarix fani va uning tarmoqlari xususida o'zining sharhlarini berib o'tadi. Bu fikrlar XX asr boshlarida tarix fanining predmeti va obyekti borasida dunyoning ko'plab tarixchilari tomonidan bildirilgan ilmiy farazlarni to'ldirib keladi [Илҳомов 2013, 32 – 47].

Abdurauf Fitratning tarix fanining ahamiyati, mohiyati, tarixning ijtimoiy vazifalari hamda tarixiy xotira borasidagi o'rni haqida bildirgan fikrlari ham nihoyatda e'tiborga loyiqdir. Garchi, tarix fanining tarbiyaviy ahamiyati borasida bu vaqtgacha ko'p fikrlar bildirilgan bo'lsada, Fitratning fikrlari bu boradagi qarashlarni to'ldirib, uning mohiyatini yanada yaqqolroq ko'rsatib beradi: "Ravshanroq tushuntirsak, ya'ni qaysi millat yuksalish fikrida bo'lsa, o'tgan qavmlar tarixiga murojaat qiladi, ularni halokatga yetkazgan sabablarni bilib, ularni tark etib, biron-bir millatning rivoji va taraqqiyotiga sabab bo'lgan qonunlar bo'lsa, ularni qabul qiladi" [Илҳомов 2013, 32 – 47].

Bu bilan har qanday millat o'z kelajagini yaratish uchun, albatta, o'tmishdan ibrat ham olmog'i lozimligi ko'rsatib o'tilgan edi. Bu borada Qadimgi Rim tarixshunosligida tarixiy xotira va uning tarbiyaviy ahamiyati borasida tarix - hayot murabbiyi, ibrat xazinasini kabi tushunchalar bilan izohlanganligini ko'rsatib o'tish ham o'rinlidir [Смоленский 2008, 33]. Yoki XX asr boshlarida zamonaviy tarix tadqiqotlarida obyektivlik tamoyilini qaror toptirishga urinish faollashgan bir davrda Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etadi: "Muarrixlar ... aslsiz¹ so'zlarni dalil maqomig'a kelturub, mushkul bir masalalarni tarixiyani qat'iy suratda hal etmaydurlar. ... Asli noma'lum bir rivoyat ila ulug' masalalarni tarixiyani hal etmoqlikni esa tarix haqida jinoyat sanaydurlar" [Бехбудий 1999, 178 – 179].

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O'zbekiston hududlarida tarix fani va tarix ilmi nafaqat taraqqiy etdi, balki jahon tarix fanining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata oladigan darajada o'zining maxsus tarixnavislik maktablarini shakllantira oldi va tarix fanining nazariy masalalarida bir qator ilmiy qarashlarni ilgari surgan tarixchilarini ham yetishtirib

¹ "Asossiz" ma'nosida (Z.I.)

bera oldi. Bu an'analar XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan tarixchilar tomonidan faol davom ettirildi. Ayniqsa, bu borada tarixchi olimlar – professor Abdurauf Fitrat hamda professor Muso Saidjonovlar o'zlarining tarix fani borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari va ilgari surgan fikrlari, yaratgan tarixiy asarlari bilan O'zbekistonda tarix fanining taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'lsalar, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Mullo Olim Mahdumhoja, Muhammad Yusuf Bayoniy, Hoji Muin kabi tarixchilar va ziyoli ma'rifatparvarlar an'anaviy tarixnavislikni davom ettirgan holda yaratgan tarixiy asarlari bilan O'zbekiston tarixshunosligi, tarixnavisligi va manbashunosligi sohalarining taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Adabiyotlar

- Абдурауф Фитрат. 2004. *Мухтасар ислом тарихи*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Абдурауф Фитрат. 2010. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Alimova, D.A., Ilhomov, Z.A. 2019. *Tarix fani metodologiyasi*. Toshkent.
- Беҳбудий Маҳмудхўжа. 1999. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Ilhomov, Z.A. 2021. "XX asr boshlarida Turkistonda tarixiy ilmiy qarashlarning rivojlanishi: Aburauf Fitrat. O'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar". *Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami*. 45 – 57. Toshkent.
- Ilhomov, Z.A. 2022. "Mahmudxo'ja Behbudiy va Aburauf Fitrat asarlarida tarix fanining nazariy masalalari". *"Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar"*: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 45 – 67. Toshkent.
- Вадуд Маҳмуд. 2007. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Воҳидов, Ш. Х. 2010. *Қўқон хонлигида тарихнавислик: генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари*. Тошкент: Маънавият.
- Ибрат. 1991. *Тарихи Фарғона*. Тошкент: Мерос.
- Илҳомов, З. А. 2013. *Тарих фани методологияси*. Тошкент.
- Мулло Олим Махдумхожа. 2010. *Тарихи Туркистон*. Тошкент: Маънавият.
- Мунаввар Қори Абдурашидхонов. 2003. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.
- Муниров, Қ. 2002. *Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари)*. Тошкент.
- Саиджанов Муса. "Новые факты о памятниках Самарканда". III Международный конгресс иранского искусства и археологии. <https://portalus.ru/modules/culture/rus>
- Саиджонов Мусо. 1927. Бухоро шаҳри ва эски бинолари. 1-қисм.

- Маориф ва ўқитғувчи* 3 – 4: 30 – 35. Тошкент.
Саиджонов Мусо. 1927. Бухоро шаҳри ва эски бинолари. 2-қисм.
Маориф ва ўқитғувчи 9 – 10. 52 – 56. Тошкент.
Муҳамедова, С. Ф. 2023. *Мусо Саиджоновнинг ижтимоий-сиёсий ва илмий фаолияти*. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент.
Муҳаммад Юсуф Баёний. 1991. *Шажараи Хоразмшоҳий*. Тошкент: Мерос.
Смоленский, Н. И. 2008. *Теория и методология истории*. Москва: Академия.
Ҳожи Муин. 2005. *Танланган асарлар*. Тошкент: Маънавият.

The aspect of History in Uzbekistan: Jadids and their historical-scientific perspectives in the early XXth century

Ziyovutdin Ilkhamov¹

Abstract

This article examines attitudes toward the study of history in Turkestan at the beginning of the twentieth century, as reflected in historical works and articles of historiographical significance, as well as in the scientific and theoretical views of historians. Analytical attention is given to the historical schools of Kokand, Tashkent, Bukhara and Khorezm, which emerged in the second half of the nineteenth and the early twentieth centuries, their role in the development of historical studies and the continuity of historiographical traditions in Turkestan during this period. The article also considers the works and scholarly views of major Jadid figures, historians, writers and enlightened intellectuals including Mahmudhoja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, Muhammad Yusuf Bayani, Ishaqkhan Ibrat, Mahdumhoja, Hoji Muin, Vadud Mahmud, and Musa Saidjonov. Their contributions to the understanding of history and historical consciousness are briefly analyzed.

Key words: *principles, approaches, jadids, historical works, scientific articles.*

¹ Ziyovutdin A. Ilkhamov – candidate of historical sciences, professor, Department of History named after Nizami.

E-mail: ilhomov@mail.ru

For citation: Ilhomov, Z. 2025. "Historical studies in Uzbekistan: Jadids and their historical-scientific perspectives in the early XXth century". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 108 – 120.

References

- Abdurauf Fitrat. 2004. *Muxtasar islom tarixi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Abdurauf Fitrat. 2010. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Alimova, D.A., Ilhomov, Z.A. 2019. *Tarix fani metodologiyasi*. Toshkent.
- Behbudiy Mahmudxo'ja. 1999. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Ilhomov, Z.A. 2021. "XX asr boshlarida Turkistonda tarixiy ilmiy qarashlarning rivojlanishi: Aburauf Fitrat. O'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar". *Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami*. 45 – 57. Toshkent.
- Ilhomov, Z.A. 2022. "Mahmudxo'ja Behbudiy va Aburauf Fitrat asarlarida tarix fanining nazariy masalalari". *"Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar"*: *Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami*, 45 – 67. Toshkent.
- Vadud Mahmud. 2007. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Vohidov, Sh. X. 2010. *Qo'qon xonligida tarixnavislik: genezisi, funksiyalari, namoyandalari, asarlari*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Ibrat. 1991. *Tarixi Farg'ona*. Toshkent: Meros.
- Ilhomov, Z. A. 2013. *Tarix fani metodologiyasi*. Toshkent.
- Mullo Olim Maxdumxoja. 2010. *Tarixi Turkiston*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Munavvar Qori Abdurashidxonov. 2003. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Munirov, Q. 2002. *Xorazmda tarixnavislik (XVII-XIX va XX asr boshlari)*. Toshkent.
- Saidjanov Musa. "Novie fakti o pamyatnikax Samarkanda". III Mejdunarodniy kongress iranskogo iskusstva i arxeologii. <https://portalus.ru/modules/culture/rus>
- Saidjonov Muso. 1927. Buxoro shahri va eski binolari. 1-qism. *Maorif va o'qitg'uvchi* 3 – 4: 30 – 35. Toshkent.
- Saidjonov Muso. 1927. Buxoro shahri va eski binolari. 2-qism. *Maorif va o'qitg'uvchi* 9 – 10. 52 – 56. Toshkent.
- Muhamedova, S. F. 2023. *Muso Saidjonovning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy faoliyati*. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
- Muhammad Yusuf Bayoniy. 1991. *Shajarai Xorazmshohiy*. Toshkent: Meros.
- Smolenskiy, N. I. 2008. *Teoriya i metodologiya istorii*. Moskva: Akademiya.
- Hoji Muin. 2005. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma'naviyat.